

INGLIZ TILI DARSLARIDA DIALOGLARDAN FOYDALANIB O‘QUVCHILARINING MULOQOT MADANIYATI KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Kuldosheva Nigorahon Avezmurodovna
Doctoral student at Bukhara State Pedagogical
Institute and teacher at the department of Foreign Languages.
quldashovanigorahon@buxdpi.uz

Annotatsiya. Maqolada ingliz tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining muloqot qilish, muloqot madaniyati ko‘nikmalarini shakllantirishda dialoglardan foydalanish usullari, darsda dialoglardan foydalanishning ahamiyati, o‘quv jarayonida innovatsion ta’lim muhitini yaratish orqali o‘quvchilarni faollashtirish, ularning kommunikativ kompetentligini tarkib toptirishda mavzuga oid dialoglar tuzishning o‘ziga xos bosqichlari, ularni qo‘llashga oid tavsiyalar bayon etilgan hamda o‘quvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirishga oid dialog namunali keltirilgan.

Kalit so‘zlar: nutq, og‘zaki va yozma nutq, dialog, dialog tuzish bosqichlari, til kompetensiyalari, muloqot madaniyati, kommunikativlik, diolog, innovatsiya, integratsiya, ta’lim muhiti.

Аннотация. В статье описаны методы использования диалогов на уроках английского языка в формировании навыков общения, культуры общения учащихся начальных классов, значимости использования диалогов на уроке, активизации учащихся посредством создания инновационной образовательной среды в учебном процессе, конкретные этапы построения предметных диалогов по содержанию их коммуникативной компетентности, даны рекомендации по их применению и даны рекомендации по формированию культуры общения учащихся. пример диалога по теме цитируется.

Ключевые слова: речь, устная и письменная речь, диалог, этапы построения диалога, языковые компетенции, культура общения, коммуникативность, диалог, инновации, интеграция, образовательная среда.

Annotation. The article describes the methods of using dialogues in the formation of communication culture skills of Primary School students in English lessons, the importance of using dialogues in the lesson, activation of students by creating an innovative educational environment in the educational process, the specific stages of creating thematic dialogues in the content of their communicative competence, recommendations for their application are presented,

Keywords: speech, oral and written speech, dialogue, stages of dialogue composition, language competencies, Communication Culture, communicativity, diologist, innovation, integration, educational environment.

Bugungi kunda kichik yoshdan boshlab xorijiy tilni puxta egallash ta’lim, ilm-fan, iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy hayotdagi globallashuvning yangi davri uchun asosiy kalit hisoblanadi. Globallashayotgan ta’lim endilikda ilm oluvchilar uchun ham, o‘qituvchilar uchun ham butun dunyoda ta’limni va ilmiy izlanishlarni davom ettirish imkoniyatini yaratib bormoqda. Bu jarayon o‘rta maxsus, kasb-hunar bitiruvchilarining turli dunyoviy bilimlarni chet tillarda bilishlaridan tashqari, o‘z kasblari haqidagi bilimlarni ham chet

tillarda davom ettirishlariga imkon yaratadi. Ma’lumki, til o’rganish ham yosh davrlariga bog’liq. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o’zlashtiradilar. Bolalarda til o’rganishga bo’lgan qiziqish, moyilliklar, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko’pligi buning asosiy sabablaridandir.

Boshlang’ich sinflardan ingliz tilidan o’quvchilar egallashi kerak bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalar kundalik, ijtimoiy, ta’limga, ijtimoiy-madaniy mavzularni o’rganish tinglash uchun mo’ljallangan matnlar; dialogik nutq; monologik nutq mazmuniga asoslanadi.

Shuni e’tiborga olish kerakki, kichik maktab yoshidagi bolalar ma’lumotlar ma’nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun mazkur yosh davrida ingliz tilini o’rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamalik zarur.

Aks holda chet tilini o’rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo’riqtirib qo’yish va qiziqishini so’ndirib qo’yish mumkin. Shunday ekan, kichik maktab yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o’rgatish ancha mushkul va mas’uliyatli jarayon bo’lib, darda mavzuga oid dialoqlardan samarali foydalanish ularda til ko’nikmalarini shakllantirishda katta yordam beradi.

Gapirish nutq faoliyati turlaridan biri bo’lib, fikrni og’zaki bayon etishdir. Gapirish - fikr va his-tuyg’uni izhor etish maqsadida muayyan tildagi leksik, grammatik na fonetik hodisalarni qo’llashdan iborat bo’lib, u chet tilini o’rganishning muhim amaliy maqsadidir.

Gapirish - bolalar o’zlarining fikr-tuyg’ularini ifoda etishga, qiziqishlarini hayotiy faoliyatlari haqida suhbatlashishga hamda ularni boshqalar fikri bilan taqqoslashga imkoniyat yaratib beradi.

Fikrni og’zaki ikki shaklda, ya’ni monolog (yakka nutq) va dialog (juft nutq) tarzida ifodalash mumkin. Monolog bir kishining nutqi bo’lib, unda ketma-ket keladigan jumlar mantiqan bog’lanadi. Nutqning ohangi va mazmuni qo’yilgan maksad sari yunaltiriladi.

Monolog quyidagi belgilarga ega:

- mazmunan izchillik kuzatiladi;
- ifodalanadigan fikrlar tayanch jumlar vositasida asta-sekin rivojlantirib boriladi;
- fikr-mulohazaning ma’lum darajada tugallanganligi nutq namunalarida ifodalanadi.

Dialog ikki va undan ortiq kishi, tinglovchi hamda gapiruvchi sifatida navbatma-navbat axborot almashuvi bo’lib, u quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- ajralmas dialogik birlikning nutqiy vaziyatga mos kelishi;
- dialog faqat munosabatgagina emas, balki gapirishga undovchi (stimul) va javob (reaksiya) jumalari (replikalari)ni almashish natijasi hamdir;
- dialogik birlikdagi qisqartmalarning uz o’rnida qo’llanilishi;
- suhbatning mazmunan bog’liqligi hisoblanadi.

Ogzaki nutq ko’pincha dialog tarzida, yozma nutk esa monolog tarzida buladi.

Yozma nutq logik izchillikka rioya qilgan holdi, ayrim til shakllarini tushirib qoldirmay, ortiqcha takrorlanishiga yo’l qo’ymay bayon qilishni talab etadi. Shuning uchun yozma nutq ancha murakkab hisoblanadi.

Og’zaki nutq ma’lum sharoitlarda yuz beradi va bu sharoitlar nutq xususiyatiga ta’sir etadi. Bu sharoitlar tildan tashqari ekstralingvistik tartibdadir. Ularga nutq faoliyati sodir bo’ladigan vaziyat, muhit, so’zlovchining yoshi va o’sish darajasi, suhbat mavzusi, o’quvchining nutqini idrok etishga diqqat qilish, mimika, imo-ishoralari va boshqalar

kiradi. Bu omillarning barchasi avvalo dialogik nutqda, ma’lum darajada monologik nutqda ham faol rol o’ynaydi.

Og’zaki nutq uslubiga so’zlovchining tashqaridan bo’lgan, har xil ta’sirlanishlyariga nisbatan turlicha munosabatni ifodalovchi, kirish so’zlar va undama kabilarni qo’llash maqsadga muvofiqdir. Masalan: oh, how glad I am to see you!

Og’zaki nutq uslubi yozma nutq uslubidan ifodaning ixchamligi yoki ko’pincha aytiladiganidek «situativligi» bilan farq qiladi. Bu og’zaki muomala jarayonida ko’p narsa ravshanlashadi. Ma’lumki boshlang’ich sinflardan boshlab o’quvchilarga ingliz tilini o’rgatishda dialog usulidan foydalanish o’quv dasturining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Til o’rgatishda dialoglardan foydalanishning o’ziga xos imkoniyatlari haqida ilmiy tadqiqotlar olib borgan tilshunoslardan M.Y.Demyanenko dialogni o’rgatishni savol-javob mashqlaridan boshlashni taklif qiladi.

G.V.Rogova dialogni response-inducement-response javob (otklik) - rag’batlantirish, uyg’unlashtirish (stimul)-javob (otklik) ketma-ketligida davom ettirishni belgilaydi.

G. V. Rogova dialogni o’rgatishni 3 bosqichgabo’ladi:

1. Retseptiv bosqich.
2. Reproduktiv bosqich.
3. Konstruktiv (ijodiy) bosqich.

Birinchi bosqichda o’quvchilar turli vositalar orqali dialogic nutqni tinglaydilar, qabul qiladilar, tushunishga harakat qiladilar.

Ikkinchi bosqichda esa, tinglaganni qaytaradilar. Uni darhol qaytarish, birozdan keyin qaytarish uni tayyorlab kelgandan so’ng, dialogni o’zgartirib qaytarish mumkin.

Uchinchi bosqichda esa, o’quvchilar o’zlari, ijodiy yondashib dialog tuzadilar.

Tajribalarimiz asosida biz boshlang’ich sinf o’quvchilarni mavzuga oid dialoglar tuzishga o’rgatishni hamda dialog jarayonida faol ishtirokchiga aylanishdagi hayotiy ko’nikmalarini hosil qilishlarini ta’minlashda yordam beruvchi quyidagi uch bosqich orqali amalga oshirishni lozim topdik (1-rasmga qarang):

1-bosqich: Dialog uchun mavzu tanlash

2-bosqich. Namuna asosida dialoglar tuzishni o’rgatish.

3-bosqich. Mustaqil dialog tuzish bosqichi, dialogni rivojlantirish

1-rasm. O’quvchilarda muloqot madaniyati ko’nikmasini shakllantirishda dialog usulidan foydalanish bosqichlari

Ushbu bosqichlarda amalga oshiriladigan o’quv faoliyatlar mazmuni o’quvchilarning til ko’nikmalarini o’zlashtirishga asoslangan qonuniyatlarga amal qilgan holda madaniyatli yondashuvlar hamda muloqotchanlikni o’zaro integratsiyalash orqali quyidagicha jarayonni o’zida aks ettiradi:

1-bosqich: Dialog uchun mavzu tanlash, uning uchun zarur til materiallarini, dialog-namunalarni, eng kerakli luqmalarni tanlash, ularni tuzishni va qo’llashni o’rgatish.

2-bosqich. Namuna asosida dialoglar tuzishni O’rgatish. Bu bosqichda o’quvchilar dialog-namunalar asosida dialogda qatnashadilar, tuzadilar. Bunda o’quvchilar dialog namunasini o’qiydilar. Birinchisi o’qiydi, ikkinchisi esa namunasiz luqmaga javob berishi, dialog-namunalardagi so’zlarni o’zgartirib dialogni qaytarishi, o’zlari dialog-namunaga o’xshatib dialog tuzishlari mumkin.

3-bosqich. Mustaqil dialog tuzish bosqichi, dialogni rivojlantirish bosqichi. Bu bosqichda o’quvchilar tayanchli, tayanchsiz, namunasiz mustaqil dialog tuzadilar. Uning uchun mavzu berilib, dialog tuzishga ma’lum vaqt berilishi mumkin. Dialog tayyorlangan, tayyorlanmagan bo’ladi. O’qituvchi dialogni tuzishni o’rgatganidan so’ng, uni tekshirishi ham kerak. Buning uchun tezda, ma’lum vaqtda dialog tuzdirish, luqmalarni qo’llatish zarur. Oldin o’qituvchi o’quvchi so’ng o’quvchi-o’quvchi dialoglarini tuzishlari ma’quldir.

Ingliz tili darslarida dialogik nutqdan foydalanish eng samarali usullardan biri bo’lib, u ikki so’zlovchi tomonidan o’zaro muloqotga kirish jarayoni hisoblanadi. Til o’rganishda dialogik nutqning ham o’ziga xos qiyinchiliklari bo’lib, o’qituvchi buni albatta e’tiborga olishi shart. Ular quyidagilar:

1. Dialog tezda javob qaytarish (reaksiya qilish) zaruriyatidir.
2. Dialogda 2 ta so’zlovchi ishtirok etadi.
3. Dialog faqatgina savol-javobdan tashkil topmaydi.
4. Har bir so’zlovchi o’z maqsadini ko’zlaydi.
5. Dialogda qatnashuvchilar oldindan uning mazmunini bilishlari qiyin.
6. Dialogda qatnashuvchilar bir-birlarini sharoitlarini, vaziyatlarini, xususiyatlarini bilgan takdirda dialog davom etadi.
7. Dialogda qatnashuvchilardan biri dialogga etakchilik qilishi zarur.
8. Dialog ta’sirchan, qiziqtiradigan mavzuda bo’lishi, kimgadir, nimagadir qaratilishi zarur.
9. Dialog nutq vaziyatida bo’ladi. So’zlovchilarning nutq vaziyati hisobga olinadi.
10. Dialogda gap qistirish, luqma tashlash (replika), vosita, tayanch, sharoit, nutq vaziyati, vositalar muhim o’rin tutadi.

Quyida biz boshlang’ich sinf o’quvchilarida til o’rganish asosida ularda muloqot madaniyati ko’nikmasini shakllantirishga yordam beruvchi dars mavzulariga mos dialoglardan namunalar keltiramiz.

1. LIBRARY

A: Hi, have you been to the library lately?

B: No, not recently. Which library are you referring to?

A: I’m talking about the new library downtown. It’s huge and modern.

B: Oh, I’ve heard about it. What’s it like inside?

A: It’s incredible. The building has multiple floors with study areas, computer stations, and even a café.

B: That sounds amazing. I’ll have to check it out sometime.

A: Definitely! They also have a vast collection of books, from classic literature to the latest bestsellers.

B: I’ll make sure to bring my library card and spend a whole day exploring all it has to offer.

A: That sounds like a plan. Let me know when you want to go, and I’ll join you.

B: Great! It’ll be fun to discover new books and enjoy the ambiance of the library together.

2. LANGUAGE LEARNING

A: Hey, have you been learning any new languages lately?

B: Yes, I’ve been trying to learn Spanish.

A: That’s great! How’s it going so far?

B: It’s challenging, but I’m making progress.

A: That’s fantastic. How are you studying?

B: I’ve been using a combination of online courses, language apps, and practicing with native speakers.

A: That sounds like a comprehensive approach. How do you manage to stay motivated?

B: I set small, achievable goals for myself, and I celebrate my progress along the way. Additionally, immersing myself in Spanish-speaking environments, such as watching movies or listening to music in Spanish, helps keep me motivated and engaged.

A: That’s a smart strategy. It’s essential to find what works best for you and incorporate various methods into your language-learning routine.

B: Exactly! By diversifying my learning activities and staying consistent with practice, I’m confident I’ll continue to improve my language skills over time.

3. TECHNOLOGY

A: Hey, have you heard about the new smartwatch?

B: No, I haven’t. What’s special about it?

A: Well, it has a larger display and better battery life than its predecessor.

B: That sounds interesting.

A: It also has advanced health tracking capabilities, such as heart rate monitoring and sleep tracking.

B: Wow, that’s impressive. I think these health-tracking features are accurate.

A: The smartwatch utilizes a combination of sensors and algorithms to provide accurate and real-time health data too.

B: That’s fascinating. I wonder how it manages to maintain accuracy across different activities and environments.

A: It’s quite complex, actually. The smartwatch employs machine learning algorithms to analyze data patterns and make adjustments for various factors, such as movement and environmental conditions.

B: That’s impressive. It’s amazing to see how technology continues to advance, especially in the realm of wearable devices.

IN THE MUSEUM

A: Hey, have you ever been to this museum before?

B: No, it’s my first time. The building looks quite impressive.

A: Yes, it’s a beautiful museum with modern architecture and large glass windows.

B: Wow, I can’t wait to explore inside.

A: Well, you know they have a vast collection ranging from classical sculptures to contemporary paintings.

B: That sounds intriguing. I’m particularly drawn to the Renaissance era. I hope they have works from that period too.

A: Absolutely! They have an entire wing dedicated to Renaissance art, showcasing masterpieces by renowned artists like Leonardo da Vinci and Michelangelo.

B: That’s incredible. I can’t wait to immerse myself in the beauty and history of these timeless artworks.

A: Yes, the museum provides a captivating journey through the evolution of art, offering visitors a deeper understanding and appreciation for artistic expression throughout history.

B: Indeed, it’s remarkable how art serves as a window into different cultures and periods, reflecting the diversity and richness of human creativity.

Tajribalar shuni ko’rsatadiki, o’quvchilarda tinglab tushunish ko’nikmasi gapirishga qaraganda kam taraqqiy etgan. O’quvchi o’qiganda, ko’rganda tinglab tushunishga qaraganda olti marta ko’p ma’lumot olarkan, Tinglab tushunish boshqa nutq faoliyatlariga ham yordam beradi. Tinglab tushunish bilan gapirish ikkalasi og’zaki nutqni tashkil qiladi. Tajribalar shuni ko’rsatadiki, tinglab tushunishni rivojlanganiga qarab, gapirish ham rivojlanadi, o’quvchi mavzuga oid dialoglarda faol ishtirok eta boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘. Hoshimov, I. Yoqubov Ingliztilio‘qitish metodikasi «Sharq» nashriyoti Toshkent – 2003.
2. Bim I.L. Osnovniye napravleniya organizatsii obucheniya inostrannim yazikam na starshey stupeni polnoy sredney shkoli // Inostranniye yaziki v shkole. 2002. № 5. S. 8.
3. Passov Ye.I. Soderjaniye inoyazichnogo obrazovaniya kak metodicheskaya kategoriya // IYASH, 2007. № 6. C. 13-23.
4. Galskova N.D. Sovremennaya metodika obucheniya inostrannim yazikam / N.D. Galskova. 2-ye izd., pererab. i dop. M.: ARKTI, 2003. 192 s.
5. Беседи об уроке иностранного языка: пособие для студентов педагогич. интов / Е.И. Пассов [и др.]. – Л.: Просвещение, 1975. – 176 с. 5. Бим, И.Л. К вопросу о методах обучения иностранным языкам / И.Л. Бим // ИЯШ. –1974. – № 2. – С. 19–32.